



Tashkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi talim fakulteti

O‘zbekiston Respublikasida iste’molchilar huquqlarini sud orqali himoya qilish masofaviy savdoda iste’molchi huquqlarini himoya qilishning usuli sifatida

O‘zbekiston qonunchiligi iste’molchilarni huquqlarini himoya qilishning uchun qonunchilik normalarini yetarli darajada shakllantirgan bo‘lib, bu normlar bir necha qonun hujjatlarida o‘z aksini topgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “Har kim o‘z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.

Har kimga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdor shaxslarining qonunga xilof qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonunda belgilangan muddatlarda vakolatli, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.

Har kim O‘zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqli ekanli” deb belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari Fuqarolik Kodeksi, ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, jinoyat kodeksi, “Iste’molchilarning huquqlarini himoya qilish haqida” gi Qonun, Elektron tijorat to‘g‘risidagi Qonun va boshqa bir necha qonunchilik hujjatlari iste’molchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga bag‘ishlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi fuqarolik huquqlarini himoya qilishning quyidagi yo‘llarini belgilaydi:



huquqni tan olish;

huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish;

bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash;

davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish;

shaxsning o‘z huquqini o‘zi himoya qilishi;

burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish;

zararni to‘lash;

neustoyka undirish;

ma’naviy ziyonni qoplash;

huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o‘zgartirish;

davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo‘llamasligi.

Fuqarolik huquqlari qonunda nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ham himoya qilinishi mumkin.

Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi qonunda esa iste’molchilar huquqlarini himoya qilishning davlat tomonidan himoya qilish usuli ko‘rsatiladi. Mazkur qonunga muvofiq, “Davlat iste’molchilarning tovar (ish, xizmat) sotib olishi va undan foydalanish chog‘idagi huquqlari hamda qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste’molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek, sudlar ta’minlaydilar.



Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnomaviy munosabatlarda iste'molchi qonunchilikda nazarda tutilgan o'z talablari qanoatlantirilishi uchun ustuvor huquqqa ega.

Quyidagilar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir: O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi huzuridagi Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish agentligi; O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi; O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi; iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari.

Biz iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishning sud orqali himoya usulini batafsil yoritishga harakat qilamiz.

"Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish haqida"gi qonunga asosan, "Iste'molchining huquqlari buzilgan taqdirda, u sudga murojaat qilishga haqlidir. Da'volar, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, javobgar, iste'molchi joylashgan erdag'i yoki zarar yetkazilgan joydagi sudga taqdim etiladi.

Iste'molchilar o'z huquqlarining buzilishi bilan bog'liq da'volar bo'yicha, shuningdek, tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste'molchilarining jamoat birlashmalari iste'molchining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atiladigan da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilinadilar".

Iste'molchilarining huquqlarini sud orqali himoya qilishda fuqarolik va ma'muriy sudlar bevosita ishtirok etishi mumkin. Fuqarolik qonunchiligi bo'yicha, fuqarolik sudlari qonunda shunday nizolarni hal qilish boshqa sudlarga yoki boshqa organlarga topshiriladigan hollardan tashqari fuqarolik, oila, mehnat, uy-joy, yer to'g'risidagi va boshqa munosabatlardan yuzaga keladigan nizolar bo'yicha ishlar, agar taraflardan hech



bo'limganda bittasi fuqaro bo'lsa, mazkur nizoni ko'rib chiqib hal etadi. Biroq yuqoridagi norma, ya'ni "davolar, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, javobgar, istemolchi joylashgan yerdagi yoki zarar yetkazilgan joydagi sudga taqdim etiladi", degan qoida FPK bilan kolliziyani keltirib chiqaradi. Aniqroq qilib aytganda, FPKning 33-modadsiga asosan, arizalar javobgar doimiy yashab turgan yoki doimiy mashg'ul bo'lgan joydagi sudga, tashkilotlarga nisbatan arizalar ular davlat ro'yxatidan o'tgan joydagi sudga beriladi. Ko'rib tuganimizdek, iste'molchilar to'g'rsidagi qonun iste'molchi joylashgan yerdagi sudga ariza bilan murojaat qilish tartibini belgilagan holda, FPK javobgar joylashgan yerdagi sudga murojaat qilish tartibini belgilamoqda. Bu esa bir munosabat uchun ikki normativ huquqiy hujjat tartib belgilashligini anglatadi. Biz esa FPK qoidalari amal qiladi degan qarashni ilgari suramiz. Demak, iste'molchi huquqlari va qonuniy manfaatlari buzilgan taqdirda fuqarolik sudiga mazkur holat bo'yicha murojaat qilishi mumkin. Misol uchun aytaylik, ist'molchiga nuqsonli tovar yetkazib berildi. Iste'molchi bundan norozi bo'lib, sudga murojaat qilishi va agarda shartnomada boshqa hol nazarda tutilmagan bo'lsa, o'z xohishiga ko'ra tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli tovarga almashtirib berish; tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning xarid narxini tegishinchha qayta hisob-kitob qilish; tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki istemolchining yoxud uchinchi shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash; xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish; shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.

Bir qarashda ma'muriy sudlar tomonidan iste'molchi huquqlarini himoya qilish bo'yicha nizolar ko'rishi mumkin emasdek ko'rindi. Biroq, ma'lum bir jihatlarni e'tiborga olib aytish mumkinki, ma'muriy sudlar ham iste'molchilar huquqlari yuzasidan ham nizolarni ko'rish huquqiga ega.

Ma'muriy sudlar iste'molchilar va tovarlar va xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtaсидаги низоларни ко'риб чиқиш орқали исте'molchilar huquqlarini himoya qiladi.



Agar iste'molchi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlariga murojaat qilgan bo'lsa, lekin qoniqarli qaror ololmasa yoki tashkilot iste'molchi oldidagi majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa, ma'muriy sud ishni ko'rib chiqishi mumkin.

Ma'muriy sudlar sifatsiz mahsulot yoki xizmat uchun pul mablag'larini qaytarish, tovarlarni sotish va xizmatlar ko'rsatish qoidalarini buzgan holda iste'molchiga etkazilgan zararning o'rnini qoplash to'g'risida, talablarga rioya qilmagan tashkilotlarga jarima solish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin. iste'molchilar huquqlari va iste'molchilarni himoya qilishning boshqa choralar.

Shunday qilib, ma'muriy sudlar iste'molchilar huquqlarini himoya qilishda muhim rol o'ynaydi va iste'molchilar va tovarlar va xizmatlar ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtaida adolatni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi;
2. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni
3. Симонян, А. Л. Защита прав потребителей при дистанционном способе продажи товаров / А. Л. Симонян. - Текст : непосредственный // Молодой ученый. 2018. № 4 (190). С. 154-156.
4. Филимонов К. В. Правовое регулирование формы договора в электронной коммерции // Юрист. 2007. № 12. С. 16-21.
5. Lex.uz web-sayti.